


PEDAGOGIK MAHORAT

MS
2021



ISSN 2181-6883

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

**MAXSUS SON
(2021-yil, dekabr)**

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2021

Nodirabegim RAJABOVA. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tadqiqotchilik faoliyatini takomillashtirish modeli	128
Yusufzoda Shabnam. Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantrish	132
Mardon YARASHOV. Boshlang'ich ta'limning dars jarayonlariga raqamli texnologiyalarni tadbiq etish vositalari.....	135
Dilora SIDIQOVA. Masofaviy ta'lif sharoitida "matematika o'qitish metodikasi" fanini o'rgatishda talabalarning kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishning metodik asosi	138
O'g'iljon OLLOQOVA. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida sintaktik kompetensiyalarni takomillashitish..	142
Umida TOG'AYEVA. Loyihaviy ta'lif vositasida "ona tili o'qitish metodikasi" modulini takomillashtirish yo'llari.....	146
Gavhar RUSTAMOVA. O'zbek xalq ertaklarida daraxtlar obrazi bilan bog'liq epik talqinlar	150
Feruza ABDULLAYEVA. Matematika darslarida interfaol metodlardan foydalanish.....	154
Feruza ABDULLAYEVA. Ta'lif tizimi sifatini oshirishda pisa va timss kabi xalqaro tadqiqotlarning roli	156
Dilnoza XAYRULLAYEVA. 4-sinf ona tili darslarida gap bo'laklarining o'qitilishi	159
Mohichehra IBROHIMOVA. Boshlang'ich sinf matematika darslarini o'tishda "day game"dan foydalanish	163
Mahliyo HAYDARQULOVA. Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarda axborot kompetentligini oshirishda inkorporatsiyadan foydalanishning o'RNI.....	166
Madina OZODOVA. Boshlang'ich sinflarda sintaktik tushunchalarni o'rgatishning metodik imkoniyatlari	170
Nigora RO'ZIYEVA. Boshlang'ich sinf matematika darslarida ulush va kasr tushunchalariga doir masalalarni tushuntirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish	172
Shahlo SAPAROVA. The classification of Elbek poems in 5 directions	175
"Pedagogik mahorat" jurnali uchun maqolalarni rasmiylashtirish talablari	178

O'ZBEK XALQ ERTAKLARIDA DARAXTLAR OBRAZI BILAN BOG'LIQ EPIK TALQINLAR

Ma'lumki, o'zbek xalq ertaklarida chinor, tut, terak, yong'oq kabi daraxtlar obrazli ko'plab uchraydi. Ertaklar syujetida real voqealar g'ayrioddiy hodisalar hamda sehr-jodu motivlari bilan uyg'un tarzda ifodalananadiki, bu voqeal-hodisalarda daraxtlar olamning asosi, o'zagi, dunyo ustuni va olamlarni birlashtiruvchi yo'l sifatida talqin etiladi. Ushbu maqolada ham xalq ertaklarida daraxtlar obrazl bilan bog'liq epik talqinlar o'rinn olgan.

Kalit so'zlar: o'zbek xalq ertaklari, ibtidoiy tasavvurlar, totemizm, kosmogonik qarashlar, chinor, tut, yong'oq.

Известно, что в узбекских народных сказках много образных деревьев, таких как клен, шелковица, тополь, орех. В сюжете сказок реальные события выражаются в соответствии с необычными событиями и магическими мотивами, в которых деревья интерпретируются как основание, ядро, столп мира и способ, объединяющий миры. В этой статье также представлены эпические трактовки, связанные с изображением деревьев в народных сказках.

Ключевые слова: узбекские народные сказки, первобытные представления, тотемизм, космогонические воззрения, клен, шелковица, орех.

It is known that in Uzbek folk tales there are many figurative trees such as maple, mulberry, poplar, walnut. In the plot of fairy tales, real events are expressed in a way consistent with extraordinary events and magical motifs, in which the trees are interpreted as the foundation, the core, the pillar of the world and the way that unites the worlds. This article also contains epic interpretations related to the image of trees in folk tales.

Key words: uzbek folk tales, primitive ideas, totemism, cosmogonic views, maple, mulberry, walnut.

Kirish. Insoniyat yer yuzida paydo bo'lgandan buyon tabiat bilan hamnafas yashab kelmoqda. Odanni tabiatdagi turli-tuman tabiiy hodisalar, olamning yaratilishi va uning tuzilishi, osmon jismlari va ularning harakati, hayvonot va o'simliklar dunyosidagi o'zgarishlar o'yantirgan va buning natijasida olam haqidagi ilk ibtidoiy tasavvurlar kelib chiqqan. Olamni mifologik anglash asosida yuzaga kelgan ana shu dastlabki tasavvurlar keyinchalik xalq og'zaki ijodining ertak janrida ham o'ziga xos tarzda talqin etila boshlangan.

Asosiy qism. "Hayot daraxti"ning yuqori qismida Semurg' yoki burgut o'tirishi, ildizlari ostida esa ajdar yoki ilon yashashi, o'rtal qismida yashovchi tuyoqlilar yoki odamning Semurg' bolasini qutqarishi episodi tasvirlangan ertak, afsona, asotirlar o'zbek xalqi orasida keng tarqalgan.

Masalan, "Odilbek bilan Xurrambek" ertagida tasvirlanishicha, qahramon "bir yerga borsa, azamat chinor osmonga o'rslab turgan emish, soyasida to'rt yuz kishi yotguday emish. Odilbek ham haligi chinorning soyasiga borib o'tiribdi. Hayol surib o'tirgan ekan, birdan chinorning tepasidan qush bolalarining chiyillashi eshitilibdi. Boshini ko'tarib qarasa, chinorning tepasida Semurg' qushining uyasi bo'lib, uyadagi bolalari chiyillayotgan ekan. Qarasa bir ajdar chinorga o'ralashib, qushning uyasiga yaqinlashib borayotganmish" [1].

Ertakdagi chinor tasviri "dunyo daraxti" haqidagi mifologik tasavvurlarni eslatadi. Chunki "dunyo daraxti"ning vertikal tuzilishi uch qismdan - yuqori, o'rtal va quyi qislardan iboratligini yuqorida keltirib o'tgan edik. "Odilbek bilan Xurrambek" ertagidagi chinor ham uch qismdan iborat: uning yuqori qismida afsonaviy Semurg' (qush), o'rtal qismida Odilbek (odam), quyi qismida esa ajdar (ilon) joylashgan.

"Dunyo daraxti" ko'rinishidagi chinorning vertikal holatidagi bu tasvirini quyidagicha talqin qilish mumkin. Daraxtning yuqori qismi, ya'ni shoxlari samoga (ezgulik olamiga) qarab o'ralgan bo'lsa, uning quyi qismi - ildizlari (yovuzlik olami) jahannamga borib tutashadi. Ana shu ikki kuch, ya'ni ezgulik bilan yovuzlik o'rtasidagi kurashda afsonaviy Semurg' ularga yordam bersa, aksincha yovuzlik ramzi bo'lgan ajdar kishilarga yomonlik keltiradi.

"Odilbek va Xurrambek" ertagida ajdar ezgulik timsoli hisoblangan Semurg'ning bolalarini yemoqchi bo'ladi, biroq Odilbek ajdarni o'ldirib, yovuz kuchning o'z maqsadiga erishishiga yo'l bermaydi. Ana shu yaxshiligi evaziga Semurg' qush Odilbekka yordam berib, uni ko'zlagan epik manziliga olib boradi.

"Arpapolvon" ertagida tasvirlanishicha, "Arpapolvon qarasa, shu payt Semurg' bola ochgan ekan, uning ikki bolasini yutmoqchi bo'lib ilon chinor tepasiga chiqib ketayotgan ekan. Ilonni Arpapolvon o'ldiribdi va o'ligini Semurg'ning bolalariga irg'itibdi" [1].

Chinor bilan bog‘liq epik motivlar “Odilbek va Xurrambek”, “Guliqahqah”, “Kenja botir”, “Qahramon” ertaklarida ham keltiriladi. Masalan, “Guliqahqah” ertagida chol kenja botirga qarab:

- “Bo‘Imasa, mana shu yo‘ldan yur, yo‘lda bir chinor bor. O‘sha chinorning ustida qush bola ochgan. Tagida bir ajdar bor, shu ajdar qushning bolalarini yegani chiqqanda, mana shu tosh bilan peshonasiga qarab ur. O‘lsa, unda qush seni murodingga yetkazadi”, - deydi”.

- “Kenja botir” ertagida “O‘g‘lim, mana shu yo‘l bilan ehtiyot bo‘lib borasan. Uzoqda bir chinor ko‘rinadi. Shu chinorda Semurg‘ qushning uyasi bor. Shu kunda Semurg‘ bola ochadi. Semurg‘ har kuni bolalariga ovqat keltirish uchun ketganda bir ajdarho kelib bir bolasini yeb ketadi”, deyiladi [2].

“Qahramon” ertagida ham chinor, Semurg‘ va ajdar bilan bog‘liq voqealar keltiriladi. “Qahramon yo‘l yurib, oxiri katta bir toqqa yetibdi. Tog‘ juda baland ekan, uning cho‘qqisida bir katta chinor bor ekan. Semurg‘ning uyasi o‘sha chinorning uchida ekan. Semurg‘ uyida bo‘limgan vaqtarda ajdar uning bolalarini yeb ketar ekan” [1].

Ertaklardagi chinor “hayot daraxti”ning ekvivalenti bo‘lsa, Semurg‘ qahramonni murod-maqsadga yetishtiruvchi mifologik ko‘makchi vazifasida keladi, ajdar esa yovuzlik timsoli sifatida talqin etiladi.

Muhokamalar va natijalar. Ertak va qahramonlik eposida saqlanib qolgan chinor bilan bog‘liq qadimiy motivlar poetik tafakkurning shakllanishida katta rol o‘ynagan. Xalq ijodi xazinasidagi ertak va dostonlar syujeti asosida yaratilgan asarlarda yaqqol seziladigan bu xususiyat Hamid Olimjon qalamiga mansub “Semurg‘ yoki Parizod va Bunyod” dostonida ham aniq ko‘zga tashlanadi. Bu dostonda xalq eposiga xos epik ruh, qahramonlarning jang-u jadalini mubolag‘ali tasvirlash, muhim, o‘zbek folklorining yuksak milliyligi, tarixiy-etnik o‘ziga xosliklari to‘la saqlangan. Tafakkurning ko‘hna turi – ertaksimon sarguzashtlarida, samoviy tushunchalar va mif poetikasining epik an‘analarida ko‘rinadi.

Qirg‘iz eposi “Er Tushtuk”da Tushtukni Yer ostidan Alp Qora Qush nomli qush qutqaradi [4]. Alp Qora Qush obrazi qozoq, qoraqalpoq va oltoy xalqlari eposida qahramonlarning homysi va xaloskorii sifatida gavdalanadi. V.M.Jirmunskiy ko‘rsatganidek, “bu ertak syujeti asosida qahramonlarning Yer osti dunyosi - o‘liklar mulkiga safari haqidagi juda qadimiy mifologik tasavvurlar yotadi” [4].

Chinor “hayot daraxti”ning ekvivalenti ekanligini tasdiqlaydigan yana bir dalil “Ko‘k qo‘chqor” ertagida qayd qilingan. Bu ertakda tasvirlanishicha, o‘gay ona Baxtiyorga dushmanlik qilib, bolaning homysi – ko‘k qo‘chqorni so‘ydirmoqchi bo‘ladi. Shunda ko‘k qo‘chqor bolani ustiga mindirib ulkan chinor tepasiga chiqarib qo‘yadi. O‘gay ona qistovidan so‘ng otasi Baxtiyorni izlab topib, yalinib, yolvorib chinordan tushiradi va qo‘chqor topa olmasin deb yetti qavat yer ostiga tushirib qo‘yadi. Yetti qavat yer ostida zerikkan bola uch marta “Ko‘k qo‘chqor!” - deb chaqirganidan so‘ng homiy jonivor tezda yetib kelib, Baxtiyorni yorug‘ olamga olib chiqadi. Yetti qavat yer osti – bu ertakda Baxtiyorning yetti qavat yer ostiga tushirilishi – o‘gay ona faoliyatining kulminatsiyasi, ya’ni bolaning o‘limga hukm qilinishining epik talqinidir.

“Ko‘k qo‘chqor” ertagidagi “yetti qavat yer ostiga tushish” motivining semantik talqini aslida quyidagicha: Baxtiyorning uydan chiqqanidan keyingi safari uch olam haqidagi qadimiy qarashlar asosida tasvirlangan. Ko‘k qo‘chqor – afsonaviy homiy, jonivor ko‘rinishidagi mifologik obrazdir. Uning dastlab bolani raqib personaj (o‘gay ona) ta‘qibidan qochirib, chinor ustiga chiqarib qo‘yishi yuqori olam – Ko‘kka safardir. Bunda chinor – “hayot daraxti”ning badiiy ifodasidir. O‘gay ona qistovi tufayli ota o‘z o‘g‘lini yetti qavat yer ostiga tushirib qo‘yishi – qahramonning yerosti olami – o‘liklar mulkiga sayohatidir.

“Shahzoda va uning singlisi” ertagida to‘rt ko‘cha birlashgan joydagagi chinor tasviri ham olamning gorizontal tuzilishi va “hayot daraxti”ning badiiy ifodasini anglatadi. Shahzoda “falon yerdagi to‘rt ko‘chaning burchagida joylashgan katta chinor tagiga borma” – deb singlisiga tayinlaydi. Singlisi esa tabuni buzib, ta‘qilangan joyga borsa, chinor ostidagi quduqda bir dev yetgan emish. U devni qutqaradi, dev esa qizning boshiga ko‘p tashvish soladi. Fikrimizcha, to‘rt ko‘cha olamning gorizontal-semantik tuzilishi ramzi, dev – yer osti olamning vakilidir, demak to‘rt ko‘cha — dunyo tomonlari timsolidir. To‘rt burchakdagi ulkan chinor – mifik hayot daraxtining ekvivalenti, chinor ostidagi g‘or esa yer osti olamiga olib boruvchi yo‘l.

Qizlarga ilon, bo‘ri, ajdarho, ayiq kabi jonivorlarning oshiq bo‘lishi va uylanish istagida sovchilikka kelishi motivi o‘zbek xalq ertaklarining an‘anaviy elementlaridan biridir. Ma‘lumki, totemistik tasavvurlarga e’tiqod kuchli bo‘lgan davrlarda muayyan jonivorga sig‘ingan kishilar ramziy marosimlar chog‘ida homiyalarining qiyofasiga kirishga harakat qilganlar. Totem qiyofasiga kirish - o‘sha muqaddas madadidan bahramand bo‘lish, ya’ni alohida magik qudratga ega bo‘lishning ramziy usullaridan biri deb qaralgan.

“Mohistara” ertagida hovuzning to‘rt burchagida o‘sgan to‘rt daraxtning quyidagicha tasviri beriladi: “hovlining o‘rtasida katta marmar hovuz. Hovuzning suvi xuddi shishadek tiniq. Hovuzning to‘rt burchagida to‘rtta daraxt bor. Bunday daraxtni Shavkat ilgari ko‘rmagan edi. Daraxtning mevalari haqiqiy bo‘lmay, biri yoqut, biri zabarjad, biri marvarid, biri oltin, biri zumrad kabi qimmatli toshlardan edi” [1].

Ajdodlarimizning gorizontal kosmik struktura haqidagi mifologik tasavvuriga asosan hovuz bo'yidagi to'rt daraxt dunyo tomonlarining ramzidir. Mevalarning har xilligi esa dunyo tomonlarining o'ziga xosligi yoki bir-biridan farq qilishini bildiradi. Binobarin, dunyoning to'rt tomonida o'suvchi qizil, oq, qora va sariq daraxt hamda olam markazida joylashgan "oltin daraxt" haqidagi qadimgi peru miflariga tayangan holda [6], "Mohistara" ertagida keltirilgan hovuz bo'yidagi to'rt daraxt ham "hayot daraxti"ning ekvivalenti sifatida talqin qilingan, deb xulosa chiqarish mumkin.

"Baxtli kal" nomli o'zbek xalq ertagida tasvirlangan oltin terakning shoxlari zumraddan bo'lsa, barglari marvariddan ekanligi aytildi: "podsho kalga supani olib kelishni buyurdi. Supa oltindan, uning yonida oltin teragi, terak ostida zabarjaddan ko'rpa-to'shak va yostiq bor edi. Terak shoxlari zumrad, barglari marvariddan edi" [5]. Ertakdagagi oltin terakning supa yonida joylashganligi "hayot daraxti"ning olam o'rtasida o'sishi haqidagi mifologik tasavvurlarni yodga tushiradi.

"Bulbuligo'yo" ertagida ham podsho o'z bog'ida bebahoi chinor daraxtini yashashni buyuradi. Bu chinorning tanasi yoqutdan, shoxchalari zumraddan, barglari zabarjaddan, mevalari gavhar-u shamchiroqdan bo'lishi kerakligini aytadi [3].

Ba'zi ertaklarda esa tut daraxti "hayot daraxti"ga xos xususiyatlarga ega bo'lgan g'aroyib daraxt sifatida tasvirlanishi kuzatiladi. "Ahmadjon bilan Luqmonjon" ertagida hikoya qilinishicha, "ikki bola cho'lma-cho'l yurib, bir necha kundan keyin bir tutning tagiga kelibdi. Ikkalovi tutning tagida uxbab qolibdilar. Dashtdagi bu yakkatut daraxti qushlar makoni ekan. Birinchi qush:

– Ey o'rtoq, pastda yotgan odam meni otib go'shtimni yesa podsho bo'ladi, - debdi" [7]. Ertakdagagi tutning dashtda yakka o'sishi, ulkanligi va uning yuqori qismida qushlar makon tutganligi uning "hayot daraxti"ga xos sifatlarga egaligini ko'rsatadi.

O'zbek xalq ertaklarida ham quyi va yuqori olamni birlashtiruvchi daraxt obrazi "Besh qiz", "Shahzoda va uning singillari" ertaklarida ham uchraydi. "Besh qiz" ertagida yer osti yo'li devning makoni ekanligi aytilgan: "tog'ni oralab yursam bir joyda bir quruq daraxt turibdi. Men: bu quruq daraxtni yiqitsam, bir qancha o'tin qilib sotaman", - deb o'ylab, daraxtning tagini bolta bilan chopdim. Daraxtni maydalab qopga solmoqchi bo'lsam, ildizi tagida bir g'or ko'rindi. Bu qanday g'or ekan deb ichiga kirsam, yo'l bor ekan. Nariroqda bir eshik. Eshikni ochsam bir qiz o'tiribdi".

"Ajdar qush" ertagida esa nomsiz daraxt tasviri mavjud: "shu g'orning yaqinida bir daraxtda keksayib qolgan ajdar qush yashar ekan. Bir kuni ajdar qush qizni ko'rib oshiq bo'libdi. O'zi ketganda qizni g'or ichida qoldirib, g'orning og'ziga katta tosh qo'yib tilla shoxi bilan tilsimlab ketar ekan" [3].

Daraxtda keksayib qolgan ajdar qush uzoq yildan beri yashaydi. Ertakda "qush" leksemasiga "ajdar" so'zi ham qo'shib ishlatalishi, bizningcha, "hayot daraxti"ning zoomorf timsollari to'g'risidagi mifologik tasavvurlar bilan bog'liq bo'lib, "hayot daraxti"ning yuqorisida qushlar joylashganligi, ildizlari ostida esa, ilon makon qurbanligi haqidagi xalq qarashlari "ajdarqush" obrazining kelib chiqishiga asos bo'lgan.

Xulosa. Demak, o'zbek xalq ertaklarida chinor, tut, terak, yong'oq kabi daraxtlar olamning asosi, o'zagi, dunyo ustuni va olamlarni birlashtiruvchi yo'l sifatida talqin etiladi.

Adabiyotlar

1. O'zbek xalq ertaklari. -Toshkent: "O'zbekiston", 1990. 121-122-betlar.
2. O'zbek xalq ertaklari. 1-tom. -Toshkent: G'.G'ulom nomidagi "Adabiyot va sanat" nashriyoti, 1995. 46-bet.
3. O'zbek xalq ergaklari. 2-tom. -Toshkent: G'.G'ulom nomidagi "Adabiyot va san'at nashriyoti", 1995. 213-bet.
4. Жирмунский В.М. Введение в изучение эпоса "Манас" // Киргизский героический эпос "Манас". -М., 1961. С.153.
5. Sirli tush. O'zbek xalq ertaklari. -Toshkent: "O'zbekiston", 1990. 131-bet.
6. Шахнович М.И. Первобытная мифология и философия. Л.: Наука, 1971. С.154-155.
7. Qari na'matak. O'zbek xalq ertaklari. -Toshkent, 1972. 46-bet.
8. O'rayeva D. S. Zamonaviy she'riyatda badiiy ko'chimlarning yangilanishi //Muassis: Buxoro davlat universiteti TAHRIRIYAT: Muharrirlar: MQ Abuzalova MA Bokareva NN Voxidova. – 2014. – S. 50.
9. Urayeva D., Niyazova M. Historical roots and some artistic features of folklore and blessings in English and Uzbek literature //EPRA International Journal of Multidisciplinary Research. – 2020. – T. 6. – №. 8. – C. 533.
- 10.Рустамова Г. Б. HISTORICAL-MYTHOLOGICAL BASES OF IMAGES ASSOCIATED WITH TREES IN FOLKLORE.

- 11.Бахроновна Р. Г. ИСТОРИКО-МИФОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБРАЗОВ, СВЯЗАННЫХ С ДЕРЕВЬЯМИ В ФОЛЬКЛОРЕ //WORLD SCIENCE: PROBLEMS AND INNOVATIONS: сборник статей ЛII Международной научно-практической конференции. – 2021. – Т. 52. – С. 1,157-160.
- 12.Рустамова Г. ФОРМИРОВАНИЕ КОМПЕТЕНТНОСТЕЙ УЧЕНИКА ЧЕРЕЗ СПЕЦИФИЧЕСКУЮ ИНТЕРПРЕТАЦИЮ ОБРАЗА ТОПОЛЯ В УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ ПЕСНЯХ," //Інновації в освітньому процесі: методологія, тенденції, технології. – 2020. – Т. 1. – С. 1,131-133.
- 13.Uraeva D. S., Khakharova I. S., Khakhorova G. S. MEANING OF EMOTIONAL WORDS IN THE FORMATION OF EXPRESSIONS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – Т. 3. – №. 2. – С. 54-62.
- 14.Ўраева Д. С., Назарова Г. П. ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК АДАБИЁТИДА ҚУШЛАР ОБРАЗИ //Сўз санъати халқаро журнали. – 2020. – Т. 4. – №. 3.
- 15.Хамраев А. Моделирование деятельности учителя при проектировании творческой деятельности учащихся //Педагогічні інновації: ідеї, реалії, перспективи. – 2018. – №. 2. – С. 23-26.
- 16.Khamroev R. A. Modeling of Teacher Activity in The Design of Creative Activities of Students in Primary School Mother Tongue Education //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 8.